

O'QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA OID TAYYORLOV MASHQLARI VA TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI.

ЗНАЧЕНИЕ ПОДГОТОВИТЕЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ И ЗАДА- НИЙ В РАЗВИТИИ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ.

THE SIGNIFICANCE OF PREPARATORY EXERCISES AND ASSIGNMENTS IN DEVELOPING READING COMPETENCE.

BO'RIBAYEVA SHAROFAT ABDURAXMANOVNA

Xalqaro Nordik universiteti chet tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qish nutq faoliyati turilaridan biri sifatida chet tilini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi hamda ushbu kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan tayyorlov mashqlari va topshiriqlarining amaliy jihatlari haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, maqolada o'qish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan turli qiyinchiliklarning oldini olish va ularni bartaraf etishga oid tavsiya etiladigan bir qator samarali mashq hamda topshiriqlar tahlil qilingan. Bunday mashq va topshiriqlar talabalarda o'qish ko'nikmasini rivojlantirish bilan birga ularni o'quv mashg'ulotiga bo'lgan qiziqishni hamda talabalarni motivatsiyasini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'qish kompetensiyasi, retseptiv nutq faoliyati, tayyorlov mashqlari, matni anglash, o'qish qiyinchiliklarining oldini olish.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение чтения как одного из основных видов речевой деятельности в процессе изучения иностранного языка, а также освещаются практические аспекты предтекстовых заданий, направленных на развитие навыков чтения. Кроме того, в статье анализируется ряд эффективных упражнений и видов деятельности, рекомендуемых для предотвращения и преодоления различных трудностей, которые могут возникать в процессе чтения. Особо подчеркивается, что такие упражнения и задания не только помогают развивать навыки чтения у студентов, но и повышают их интерес к занятиям в аудитории, а также усиливают мотивацию к обучению.

Ключевые слова: навыки чтения, рецептивная речевая деятельность, предтекстовые задания, понимание текста, предотвращение трудностей при чтении.

Abstract: This article discusses the significance of reading as one of the major types of speech activity in foreign language learning and highlights the practical aspects of preparatory exercises and tasks aimed at developing reading competence. Furthermore, the article analyzes a number of effective exercises and activities recommended for preventing and overcoming various difficulties that may arise during the reading process. It is particularly emphasized that such exercises and tasks not only help develop students' reading skills, but also increase their interest in classroom activities and enhance their motivation to learn.

Keywords: reading competence, receptive speech activity, preparatory exercises, text comprehension, prevention of reading difficulties.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, o'qish retseptiv nutq faoliyati turi sifatida chet tilini o'qitishda muhim ahamiyatga egadir. Ba'zida chet tili darslarida o'qish ko'nikmasidan o'rganilayotgan mamlakat aholisi hayoti, turmush tarzi, urf-odatlar haqida ma'lumotlar olinsa, ba'zida yangi so'zlarni, talaffuzni yoki grammatik strukturalarni o'zlashtirishda unumli foydalaniladi. "O'qish deganda harfiy belgilarda ifodalangan nutqiy axborotni idrok etish va uni mazmunini payqash jarayoni tushuniladi".¹ "Barcha neyrolog olimlari ta'kidlaganidek, o'qish — inson miyasining axborotni qayta ishlash borasidagi eng yuqori darajadagi faoliyatlaridan biridir. Shunga ko'ra o'qish juda murakkab jarayon hisoblanadi, chunki unda turli xil jarayonlar ulkan tezlikda bir vaqtning o'zida amalga oshadi".² Haqiqatan ham bir vaqtni o'zida matnni o'qish, mazmunini idrok etish, tahlil qilish va axborotni qayta ishlash juda murakkab kognitiv jarayon sanaladi. Ta'lim oluvchilar chet tilidagi matnlarni o'qish jarayonida ko'pincha bir qator tilga, uslubga oid va ba'zida esa madaniyatlararo muloqotda yuzaga keladigan to'siqlarga ro'baro' kelishi mumkin. Aynan shunday qiyinchiliklarning oldini olish va o'qish jarayonini samarali tashkil etishda tayyorlov mashqlari hamda topshiriqlari muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Chet tilida o'qib tushunish biroz murakkab faoliyat hisoblanib, xorijiy tilini o'rganishda eng muhim bo'lgan kompetensiyalardan biridir. Ba'zi olimlarning fikricha o'qish chet tilini o'rganishda bosh maqsad sifatida qaralmasada, chet tilida gapirishni o'rgatishda muhim hal qiluvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. O'qish ko'nikmasini rivojlantirishga oid ilmiy

manbaalarda turlicha talqinlar mavjud bo'lib, quyida biz ba'zilarini ko'rib chiqishni joiz deb topdik. "Chet tili darslarida o'qish ko'nikmasini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida qaralmaydi. Chet tili darsida o'qish, avvalo, o'quvchilarni chet tildagi matnlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarini mustaqil ravishda qondirishga qaratiladi."³ "Matnni o'qish til kompetensiyalaridan biri sifatida chet tilini o'qitishda muhim o'rin tutadi. Matn nutq faoliyatining boshqa turlarini hamda so'z boyligi, grammatika, fonetikani o'rgatishda katta imkoniyatlar ochadi."⁴ Yoqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, o'qish nutq faoliyati turi sifatida chet tili darslarida yetakchi vosita sifatida muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda yoshlarimiz o'rtasida o'qishga bo'lgan munosabat biroz o'zgarib, kitoblarni mutolaa qilishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga susayib bormoqda. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida ijtimoiy tarmoqlardan muntazam foydalanish, kompyuter va smartfonlardan keng ko'lamda foydalanish hamda ular orqali axborotni tez va oson qabul qilish imkoniyatining ortib borishi ko'rsatiladi. Ammo tez va oson qabul qilingan narsalar ko'pincha o'qish ko'nikmalarini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bolalarga maktab davridayoq o'qishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish darkor. "Chet tilida o'qishni o'rganish o'rta maktab o'quvchilari uchun yakuniy amaliy maqsad hisoblanadi." Shu sababli o'quvchilarning ichki motivatsiyasini rivojlantirish, faol va qiziqarli ta'lim usullaridan foydalangan holda matnlar ustida ishlashga katta ahamiyat berish kerak. Maktabda bolalarni avallambor ona tilida o'qish kompetensiyasini oshirish

1 Жалолов Ж. Чет тили ўқитиш методи-
каси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 218 б.

2 So lernen Kinder erfolgreich Deutsch.
Hg. vom Goethe-Institut. – Berlin: Erich
Schmidt Verlag, 2016. S.32

3 Westhoff G.. Fertigkeit Lesen. München:
Langenscheidt.Goethe-Institut. 1997. S.7

4 Бурибаева Ш. А., Хафизов Г. А. Рабо-
та над текстом в национальной аудитории
// Вестник науки и творчества. – 2019. – № 5
(41). – С. 12

maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o'quvchilar qiziqishidan kelib chiqib matnlar tanlash va matnlarga oid turli qizigarli mashq va topshiriqlar ishlab chiqish kerak. O'quvchilarda o'z ona tilida o'qishga bo'lgan muhabbat uyg'otilsa chet tilida ham o'qish kompetensiyasini rivojlantirish ancha oson kechadi.

Ko'pgina hollarda chet tilida notanish so'zlarni ko'pligi sababli matnlarni o'qishga bo'lgan qiziqishni susayishini kuzatish mumkin. Matnda duch keladigan qiyinchiliklarni oldini olishga mo'ljallangan mashqlardan foydalanish orqali notanish so'zlar ustida ishlash mumkin. Bunday mashqlar qatoriga so'z va unga mos keladigan rasmlar, so'z va uning ta'rifi yozilgan kartochkalardan foydalanish tavsiya etiladi. Yangi so'zlarni kontekst yordamida taxmin qilish, sinonim/antonimlar orgali ularning ma'nosini ochish o'qish jarayonida lug'atga tez-tez murojaat qilishni oldini oladi. Bundan tashqari matnni o'qishdan oldin "Aqliy xujum", "Mind map" metodlari ham so'zlar ustida ishlashga juda katta yordam beradi.

Navbatdagi matnni o'qishdan oldin bajariladigan mashqlar qatoridan o'rin olgan



sarlavha ustida ishlash o'quvchilarning o'qish jarayoniga tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mashqlar orqali til o'rganuvchilar matn mazmunini oldindan taxmin qilish, asosiy g'oyani anglash va o'qishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish imkoniyatiga ega bo'lalilar. Sarlavha ustida ishlash orqali ular matn mazmuni haqida taxminiy fikrlarni bayon etadilar va avvalgi

to'plagan bilimlarini faollashtirib erkin gapirishga harakat qiladilar. Shuningdek, bunday tayyorlov ishlari matn mazmuniga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi, o'quvchilar diqqatini matnni o'qishga qaratadi, chunki oldindan qilingan taxminni matn mazmuni bilan solishtirish o'quvchilarda tahlil qilish, xulosa chiqarish va o'qish jarayoniga faol ishtirok etish ehtiyojini shakllantiradi. Rasmlar va matn mazmuniga oid tayanch so'zlar asosida kichik guruhlarda matnlar tuzish ham o'quvchilarda tafakkur, tasavvurni rivojlantirishga va ularni faol o'qishga tayyorlashda samarali usul sifatida xizmat qiladi. Quyida biz o'z tajribamizda qo'llagan matnni o'qishdan oldin bajarilgan topshiriq xususida to'xtalib o'tmoqchimiz. Ushbu topshirigni talabalarga berishdan asosiy maqsad matnda duch keladigan qiyinchiliklarni oldini olib, talabalarining darsdagi faolligini ta'minlashdan iborat edi. Menschen A2.2 darsligidagi 23 qismda „Liebe die Arbeit, die du machst“ matnini talabalarga o'qishga taqdim qilishdan oldin Storyboardthat.com sayti yordamida matnga mos rasmlar va vasiyatga tegishli bo'lgan gaplar yoki so'z birikmalari tanlanadi hamda o'qituvchi tomonidan talabalarga guruchlarda ishlash uchun tavsiya qilinadi.

Kichik guruhlarda ishlash orqali ular rasmlarni tahlil qiladilar, tayanch so'zlarning ma'nosini ochadilar va shu asosda turli qisqa matnlar tuzadilar. Har bir guruh tomonidan o'qilgan matnlar talabalar tomonidan diqqatlik bilan o'zlarini tuzgan matn bilan solishtirish maqsadida tinglanadi. Yoki tayyor matnlar devorlarga yopishtiriladi va boshqa guruh a'zolari tomonidan matnlar o'qiladi va xatolar to'g'rilanadi.

Bu jarayon talabalarda mantiqiy fikrlash, jamoada ishlash, nutqni rivojlantirish hamda oldingi bilimlarni faollashtirishga xizmat qiladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarda matn mazmunini oldindan taxmin qilish ko'nikmasini shakllantiriladi va asosiy matn o'qilganda, o'quvchilar matn mazmunini

osonroq anglyadilar, chunki ularda mavzu bo'yicha muayyan tasavvur shakllangan bo'ladi. Shuningdek, bunday mashqlar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanishiga yordam beradi.

Yuqorida aytib o'tilgan matnni o'qishdan oldin bajariladigan amallar tayyorlov mashq va topshiriqlari deb atalib, bunday mashqlarni bajarish doimo talabalarga matn mazmunini tezroq va osonroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, chet tilida o'qish juda murakkab faoliyat bo'lganligi sababli o'quv mashg'ulotlarida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni uzluksiz hamda tizimli yondashuvni talab etadi. Bu borada

chet tilida matnni o'qishdan oldin tayyorlov mashq va topshiriqlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotlar va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, matnni o'qishdan oldin bajariladigan tayyorlov nashqlar va topshiriqlari ta'lim oluvchilarda uchrashi mumkin bo'lgan leksik, grammatik va ijtimoiy-madaniy qiyinchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Bundan tashqari ular o'quvchilarning psixologik to'siqlarini yengishga, ichki motivatsiyasini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

Shu sababli, o'quv mashg'ulotlarida qiyinchiliklarning oldini oluvchi matnoldi mashq va topshiriqlaridan samarali foydalanish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Ж.Жалолов. Чет тили ўқитиш методикаси.Тошкент:Ўқитувчи.1996
2. Brinitzer M., Hantschel H.J. u.a. Daf unterrichten. Basiswissen Didaktik Deutsch als Fremd-und Zweitsprache. Stuttgart: Ernst Klett Sprachen. 2016.
3. So lernen Kinder erfolgreich Deutsch. Hg. vom Goethe-Institut. Erich Schmidt Verlag. Berlin. 2016.
4. Westhoff G. Fertigkeit Lesen. München: Langenscheidt.Goethe-Institut. 1997
5. Бурибаева, Ш. А., & Хафизов, Г. А. (2019). РАБОТА НАД ТЕКСТОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ АУДИТОРИИ. Вестник науки и творчества, (5 (41)), 12-15.